Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA MUZEYLARNING AHAMIYATI VA ISTIQBOLLARI

Mutalibjon Xasanov

FarDU, O'zbekiston-Xitoy qo'shma kafedrasi

Saidov Sobidjon Sidiqjon o'g'li

FarDU, Muzey menejmenti va madaniy turizm yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Email: sobidjonsaidov894@gmail.com

doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20551295

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy turizm sanoatini rivojlantirishda muzeylarning o'rni, ularning madaniy-ma'rifiy jozibadorlikni oshirishdagi ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati tahlil qilinadi. Muzey ekspozitsiyalarini xorijiy va mahalliy turistlar oqimini jalb qilish omiliga aylantirish, ochiq osmon ostidagi muzeylar faoliyati hamda muzey marketingini shakllantirishning huquqiy-metodologik asoslari O'zbekiston tajribasi doirasida yoritilgan.

Kalit so'zlar: madaniy turizm, muzey ekspozitsiyasi, jozibadorlik, muzey marketingi, ochiq osmon ostidagi muzey, ekskursiya, madaniy meros.

Abstract: This article analyzes the role of museums in the development of the modern tourism industry, and their socio-economic importance in increasing cultural and educational attractiveness. The methodological and legal foundations of transforming museum exhibitions into a factor for attracting foreign and local tourist flows, the activities of open-air museums, and the formation of museum marketing are highlighted within the framework of Uzbekistan's experience.

Keywords: cultural tourism, museum exhibition, attractiveness, museum marketing, open-air museum, excursion, cultural heritage.

Аннотация: В данной статье анализируется роль музеев в развитии современной индустрии туризма, их социально-экономическое значение в повышении культурно-просветительской привлекательности. В рамках опыта Узбекистана освещены методологические и правовые основы превращения музейных экспозиций в фактор привлечения потоков иностранных и местных туристов, деятельности музеев под открытым небом и формирования музейного маркетинга.

Ключевые слова: культурный туризм, музейная экспозиция, привлекательность, музейный маркетинг, музей под открытым небом, экскурсия, культурное наследие.

Kirish

Bugungi globallashuv va madaniy integratsiya davrida turizm industriyasi jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylandi. Turizm turlari ichida esa madaniy (kultural) turizm yetakchi o'rinni egallab, sayohatchilarning asosiy qismi aynan borayotgan hududining qadimiy tarixi, urf-odatlari va moddiy merosi bilan tanishishni maqsad qiladi. Muzeylar esa ushbu madaniy merosni jamlagan, saqlayotgan va namoyish etayotgan bosh boshlang'ich maskandir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining turizm salohiyatini tubdan oshirish va muzeylar faoliyatini takomillashtirishga oid farmon hamda qarorlarida muzeylarni xalqaro turistlar uchun asosiy "tashrif markazi" (visitor center) sifatida qayta shakllantirish vazifasi belgilangan.

Biroq, an’anaviy va statik ko‘rinishdagi muzeylar bugungi kun sayyohining talablariga to‘liq javob bera olmaydi. Zamonaviy turist shunchaki vitrina ortidagi osori-atiqalarni tomosha qilishni emas, balki tarixiy jarayonning interaktiv ishtirokchisiga aylanishni xohlaydi. Shu sababli, turizm bozorida muzeylarning raqobatbardoshligini oshirish, ekskursovodlar tayyorlash va zamonaviy xizmat turlarini joriy etish masalalarini ilmiy jihatdan o‘rganish o‘ta dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Asosiy Qism

Muzeylarning turizmdagi rolini oshirish va ularni iqtisodiy daromad keltiruvchi sub’ektga aylantirish asosan ikki muhim yo‘nalishdagi yondashuvlarni talab qiladi.

1. Muzey ekspozitsiyalarini interaktivlashtirish va raqamli turizm

Turistlarni jalb qilishda muzey ekspozitsiyasining vizual tili va interaktiv imkoniyatlari hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bugungi kunda dunyoning yetakchi muzeylarida smartfonlar uchun audio-gidlar, QR-kodlar tizimi va to‘ldirilgan borliq (AR – Augmented Reality) texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda. Bu xorijiy sayyohlarga tarjimonlarsiz, o‘z ona tillarida eksponat haqida to‘liq ilmiy ma’lumot olish imkonini beradi.

1-rasm. Muzey ekspozitsiyalarida innovatsion interaktiv va multimedia texnologiyalaridan foydalanish.

1-rasmda aks etgan raqamli interaktiv ko‘rgazma tizimixulosasi shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy muzeylar faqatgina an'anaviy statik eksponat ko‘rsatish bo‘lib qolmasligi lozim. Bizning fikrimizcha, mahalliy



muzeylarimizda ham mana shunday multimedia texnologiyalari va sensorli ekranlarni ko‘paytirish orqali xorijiy turistlarning muzey ichida ko'proq vaqt o'tkazishini ta’minlash mumkin. Ayniqsa, muzey ashyolarining raqamli pasportlari va 3D modellarini yaratish turistik jozibadorlikni keskin oshiradi va muzeyning iqtisodiy mustaqilligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

2. Ochiq osmon ostidagi muzeylar va me’moriy meros turizmi

Me’moriy va arxeologik yodgorliklar majmuasida tashkil etilgan ochiq osmon ostidagi muzeylar (Open-air museums) turizmni ommalashtirishda eng yuqori ko‘rsatkichga ega. O‘zbekistondagi Xiva "Ichan-qal’a" davlat muzey-qo‘riqxonasi, Buxoro yoki Samarqanddagi tarixiy obidalar majmualari bunga yaqqol misoldir. Bunday obidalarda sayyoh o‘zini tarixiy muhit ichida his qiladi.

2-rasm. Tarixiy obidalar va ochiq osmon ostidagi muzeylarni zamonaviy turistik infratuzilma bilan uyg'unlashtirish.

Biroq, ochiq osmon ostidagi obidalarga turistlarni jalb qilishda faqatgina tarixiy devorlarni ko‘rsatish yetarli emas. Bu yerda xizmat ko‘rsatish va infratuzilmani ham zamonaviy andozalarga



moslash lozim.

"Bizning fikrimizcha, ochiq osmon ostidagi muzeylar hududida milliy hunarmandchilik ustaxonalari va jonli ijro dasturlarini, ya'ni xalqaro tajribadagi 'living museum' (jonli muzey) konsepsiyasini yo‘lga qo‘yish zarur. Masalan, turist shunchaki qadimgi binoni tomosha qilmasdan, uning yonida milliy hunarlar (kulolchilik, gilam to'qish yoki an'anaviy xalq sartaroshligi) jarayonini bevosita kuzatishi va unda o‘zi amaliy ishtirok etishi lozim, sababi bu jonli jarayonda qatnashish sayyohlarga o’zgacha hissiyot beradi. Shuningdek, 2-rasmda ko'rsatilganidek, tarixiy obidalarning asl qiyofasiga zarar yetkazmagan holda sayyohlar uchun qulayliklar yaratish va bo'lajak mutaxassislarning xorijda malaka oshirish tizimini kuchaytirish lozim."

Xulosa

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, muzeylar mamlakatning turistik brendini belgilab beruvchi va iqtisodiy o‘sishni ta’minlovchi strategik resursdir. Muzeylarning turizmdagi ahamiyatini yanada oshirish uchun quyidagi ilmiy-amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish taklif etiladi:

Muzey xizmatlarini tijoratlashtirish: Muzeylar qoshida xalqaro standartlarga mos keladigan brend mahsulotlar do‘konlari va milliy uslubdagi kafelar tarmog‘i hamda hunarmandlar yasagan qo’l mehnatlarini taqdimot, ko‘rgazmalari tashkil etish orqali qo‘shimcha daromad manbalarini yaratish;

Kadrlar malakasini oshirish va xalqaro hamkorlik: Turistlar bilan bevosita ishlaydigan ekskursovod va muzeyshunos kadrlarning xorijiy tillarni hamda zamonaviy muzey marketingini mukammal egallashlarini ta’minlash, bo‘lajak yosh kadrlarning xorijiy ilg‘or muzeylarda malaka oshirish tizimini yo‘lga qo‘yish;

Muzey va Sayyohlik shirkatlari integratsiyasi: Turistik operatorlar bilan hamkorlikda "Muzey kechasi" (Night at the Museum) kabi tungi ekskursiya dasturlarini hamda yagona elektron chipta (Single Museum Pass) tizimini amaliyotga joriy qilish.

Ushbu rejalar tizimli amalga oshirilsa, muzeylarimiz nafaqat ma’naviyat maskani, balki milliy iqtisodiyotni harakatlantiruvchi yirik turistik markazlarga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining "Muzeylar to‘g‘risida"gi Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. – Toshkent, 2008.
3. ICOM. Muzeylar va barqaror turizm xalqaro qo‘llanmasi – Parij, 2018.
4. To‘xliyev N. Abdullayeva T. Ekologik va madaniy turizm – Toshkent, 2014. – B. 88-95.